

O‘ZBEK SHE‘RIYATINING IFTIXORI: ZULFIYA

Shodmonqulova Diyora Bobur qizi

Baxtiyeva Dilbar Javlonbekovna

Toshkent Tibbiyot akademiyasi talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek adabiyotining yorqin siymolaridan biri bo'lgan Zulfiya hayoti va ijodi haqida so'z yuritiladi. Shoiraning insoniy qadriyatlarni ulug'lovchi she'rlari, ayollar huquqlari va ijtimoiy mavzularni yoritishdagi hissasi keng yoritilgan. Maqolada Zulfiya she'riyatining o'zbek adabiyotidagi o'rni va uning yangi avlod shoiralari uchun ilhom manbai bo'lganligi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: ayol, o'zbek adabiyoti, she'riyat, ayollar huquqlari, vatanparvarlik, ma'naviy qadriyatlar, ayollar ijodi, milliy meros, shoira, ilhom manbai, vafodorlik

Zulfiya ismi o'zbek adabiyotida alohida o'rin tutadi. Shoira, yozuvchi, davlat va jamiyat arbobi sifatida u o'zining betakror she'riyatini yaratgan va o'zbek ayolining obrazini yangi bosqichga olib chiqqan. Uning ijodi nafaqat badiiy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan, balki zamonning turli sotsial va madaniy masalalariga javob berishga ham intilgan.

Zulfiya 1915-yilning 1- martida Toshkent shahrida tug'ilgan. Shoira po'lat taftiga



yo'g'rilgan xonadonda dunyoga kelgan bo'lsada, yoshligidan she'riyatga, ijodga qiziqar edi. Bunga albatta oilasidagi muhit ham ta'sir qilgan. O'zining ta'biri bilan aytganda, mo'jizalar yaratishga qodir, jahonni ko'zga keng ochuvchi, insonni go'zallik sari yetaklovchi so'zga shaydolik hissini uning qalbida ostonaga hatlab ko'chaga chiqmagan oddiy ayol– onasi uyg'otgan

Mehnat faoliyatini juda erta boshlagan shoira deyarli bir umr jurnalistika va nashriyot sohasida ishladi. U 1935-1938- yillarda Til va adabiyot institutida aspirant, 1938-1948-yillarda Bolalar nashriyoti muharriri, O'zbekiston davlat nashriyoti bo'lim mudiri, 1953-yilgacha "Saodat" jurnalida bo'lim mudiri, 1953-yildan to 1958-yilga qadar,

salkam o'ttiz yil davomida shu jurnalning bosh muharriri lavozimida ishlab keldi.

16 yoshida xotin-qizlar bilim yurtida tahsil olishni boshlagan Zulfiyaning "Men ish qizi" deb nomlangan ilk she'ri "Ishchi" jurnalida bosilib chiqqan. Shundan keyin shoira 1932-yilda "Hayot varaqlari" nomli ilk she'riy kitobi bilan she'riyat olamiga kirib keldi. Bu kitobni eslab, Zulfiya shunday yozadi: "Bu to'plamni varaqlab qolganimga ko'zimga g'o'rlik va kamchiliklar yaqqol tashlanib, meni hijolatga soladi". Garchi bu to'plamdagi yigirmaga yaqin she'rlardan ijodkorning hali tajribasizligi ko'zga tashlansa-da, ular o'zida

yosh o‘zbek qizning har inson, har narsa-voqeaga hayrat va zavq-shavq bilan qarovchi, ularni o‘zining sodda tili bilan borligicha qog‘ozga qoralay oluvchi jo‘shqin qalbini aks ettiradi. Ushbu she‘rlardagi samimiyat, yorqin ranglar, hayotni teran anglovchi qalb keyinchalik Zulfiya ijodining yetakchi xususiyatiga aylanadi.

Zulfiya she‘riyati, uning zamonidan oldin va keyin yashab kelgan shoirlar uchun muhim bir ko‘rsatkich bo‘ldi. U faqat badiiy ijod bilan cheklanmay, balki jamiyatdagi o‘zgarishlarni ham o‘z she‘rlarida ko‘rsatishga muvaffaq bo‘ldi. Shoira ayollarning huquqlarini himoya qilish, ularni ilm olishga, ijtimoiy faollikka undash uchun ko‘plab asarlar yaratdi. Zulfiya she‘riyatida insonni o‘ylashga, uning qalbini tushunishga va unga muhabbat bilan qarashga chaqiruvchi ruh mavjud.



Zulfiyaxonimning deyarli barcha ijod namunalari xalqimiz ichiga kirib bora oldi. Jumladan,

- “Temiroy” (1934),
- "She‘rlar", "Qizlar qo‘shig‘i" (1939),
- "Uni Farhod der edilar" (1943),
- "Hijron kunlarida" (1944),
- "Mushoira", "O‘g‘lim, sira bo‘lmaydi urush",
- "O‘ylar" (1965),
- "Visol" (1972),
- "Yillar, yillar..." (1975) singari she‘riy kitoblari

Zulfiyaga shuhrat keltirdi.

Zulfiya hayotining muhim bir qismini Hamid Olimjonning adabiy merosini o‘rganish va nashr etish ishiga bag‘ishladi. A. S. Pushkin, M. Yu. Lermontov. N. A. Nekrasov, M. Voqif, L. Ukrainka va boshqalarning asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Uning asarlari ko‘plab chet tillarda, shuningdek, qardosh turkiy xalqlar tillarida nashr etilgan.

Zulfiya ijodi o‘zbek she‘riyatining rivojlanishida, ayniqsa, ayollar adabiyoti sohasida katta o‘rin tutadi. U o‘zining betakror she‘riyatini yaratish orqali nafaqat o‘z zamonining, balki kelajak avlodlarining ham ruhiy va ma‘naviy ehtiyojlarini o‘z ichiga olgan. Zulfiya o‘zbek adabiyotining ajralmas bir qismiga aylangan va uning nomi hamisha yodda qoladi.

Shu tarzda, Zulfiya o‘zining she‘riyatiga nafaqat go‘zallik va san‘at, balki insoniyatning oliy maqsadlariga, uning erkinligi, tengligi va baxtiga bo‘lgan ishonchini ham singdirgan. Uning merosi adabiyotimizda doimo qadrlanib, yangi avlod shoirlari uchun muhim ilhom manbai bo‘lib qoladi.

Zulfiya Isroilova – o‘zbek she‘riyatining nozik va chuqur tuyg‘ularni ifoda etuvchi iste‘dodli shoirlaridan biridir. Uning ijodida sevgi, Vatan, ayollik va insoniylik mavzulari yetakchi o‘rinni egallaydi. “Bahor keldi seni so‘roqlab” she‘ri – shoiraaning eng ta‘sirli va yuraklarga yaqin asarlaridan biri bo‘lib, unda sog‘inch va tabiat uyg‘onishi orqali insoniy his-tuyg‘ular chuqur ifodalanadi. Ushbu maqolada she‘rning mazmuni, asosiy g‘oyalari va badiiy xususiyatlari tahlil qilinadi.



Zulfiya nafaqat xalq shoirasi, balki millatning ma'naviy elchisi edi. U xalqning qadriyatlarini, uning ichki olamini va go'zalligini dunyoga tanitdi. Uning she'rlari xalqning ruhiyatini, ma'naviyatini va madaniyatini o'zida aks ettiradi. Shoiraning ijodi bugungi kunda ham yoshlar orasida ma'naviy uyg'onishning kuchli manbai bo'lib xizmat qilmoqda. Shoiraning ijodi xalq dardini, uning ruhiy kechinmalarini

ifodalashda beqiyosdir. Ikkinchi jahon urushi yillarida yozilgan she'rlarida Zulfiya xalqning fojealarini, urush yillaridagi achchiq haqiqatlarni tasvirlab bergan. "O'g'lim sira bo'lmaydi urush" she'rida urushning insoniy hayotga olib kelgan og'ir zarbalari aks etadi.

Zulfiyaning bu she'ri hayotda qaror topgan eng asosiy qadriyatlarni — mehrni, sevgini, fidoyilikni, va o'zaro yordamni ulug'laydi. U ona va farzand o'rtasidagi aloqaning yagona va o'ziga xosligini, bu munosabatlarning haqiqatda qanday ulug'vor va mustahkam ekanligini o'quvchiga his-tuyg'ulari orqali etkazadi.



Biz ham ularga havas va zo'r ishtiyoq bilan shoiraning barchamizga o'rnak bo'luvchi hayoti, takrorlanmas ijodini mukammal o'rganish, o'z ijodimiz bilan Zulfiyaxonimning chinakam izdoshi bo'lishga sitqidildan harakatdamiz. Bir narsani faxr va ishonch bilan ayta olamizki, har bir o'zbek qizida o'zgacha iste'dod, takrorlanmas iqtidor bor. Ularni kamol toptirish esa barchamizning o'z qo'limizda. Zero, biz To'maris-u Bibixonim, Nodira-yu Zulfiyaxonimlar izdoshlarimiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sultonova M., Ijod sahifalari, Toshkent, 1975; Zulfiya [bibliografiya], Toshkent, 1977; Sultonova M., Zulfiya, Toshkent, 1985; Ibrohimov M., Quyoshli she’riyat ijodkori, Toshkent, 1986; Ehtirom [nashrga tayyorlovchilar: Rahima Shomansurova, Ra’no Rahmonova], Toshkent, 1995.
2. Qayumov L. Shoiri Zulfiya. Toshkent, O‘zadabiynashr, 1965.
3. Mirvaliev S. O‘zbek adiblari. Toshkent: Yozuvchi“, 2000. 5. Tanlangan asarlar (3 jildli), Toshkent, 1985;
4. Zulfiya. She’rlar va poema. — Toshkent: O‘zbekiston, 2005.